

QISHLOQ XO‘JALIGIDA KLASTER KORXONALARНИ TASHKIL QILISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING ZARURATINI KELTIRUVCHI HOLATLAR

Haydarova Dinora Atamurot qizi

TerDU Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) mutaxassisligi 1-kurs magistranti

dinara.haydarova.14@gmail.com

Ilmiy rahbar: PhD Abdulxayeva G.M.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligida klaster tizimini joriy qilishning iqtisodiy samaradorligini asoslash va qabul qilinayotgan huquq va imkoniyatlar tahlil qilingan. Tizimda yaratilgan yangi ish o‘rnlari va investitsiya kiritishni takomillashtirish yo‘nalishlari asoslangan.

Kalit so‘zlar: agroklasterlar, fermer xo‘jaliklar, klaster korxonalar, yangi ish o‘rni, sanoatlashtirish, investitsiyaviy loyiha, paxta-to‘qimachilik klasteri, innovatsion faoliyat, iqtisodiy rivojlanish.

CIRCUMSTANCES NECESSITATING THE ESTABLISHMENT OF AGRICULTURAL CLUSTERS AND THEIR USE

ABSTRACT

This article analyzes the economic and legal basis for the implementation of the cluster system in agriculture and the perceived rights and opportunities. The system is based on the creation of new jobs and ways to improve investment.

KIRISH

2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan startegiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi [3] Prezident farmoniga ko‘ra, “qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o‘sishni qo‘llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko‘paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish” strategiyani amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari qilib belgilangan. Prezidentimizning 2021-yil 16-noyabrdagi farmonida fermerlarning huquqlari va imkoniyatlari qaror bilan belgilab qo‘yilgan.

Jahon qishloq xo‘jaligida tayyor mahsulot ishlab chiqarishga mo‘ljallangan iqtisodiyot yetakchilik qilmoqda. Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi asosiy soha hisoblanib, qishloq aholisini ish bilan ta’minalash, daromadlarini oshirish va iqtisodiy o‘sishga erishishda innovatsion usullardan foydalanishni talab etadi. Iqtisodiy rivojlanishning an’anaviy usullari yetarli darajada foyda bera olmayotganligi, klaster nazariyasini amaliyatga tatbiq etish eng maqbul yo‘l hisoblanadi.

Klasterlashtirishni korxonalar innovatsion faoliyatini tezlashtirish asosida raqobatbardoshligini oshirish va ularning global raqobatning kuchli ta’siriga qarshi turishdagi milliy va mintaqviy rivojlanish talablariga to‘la javob beradigan yangi iqtisodiy tizim deb qarash mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda ham innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va boshqarishda klaster tizimidan foydalanish bo‘yicha tajribalar to‘plangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hozirgi zamonaviy texnologiyalar asrida yuqori yutuqlarga erishish, kuchli raqobat muhitida mustahkam o‘rin egallashda klaster siyosatini takomillashtirish ishlari olib borilmoqda. Tadbirkorda manfaatdorlik hissi, yangicha dunyoqarash bo‘lsa, albatta natija qiladi. Iqtisodiyot ishlasa, ijtimoiy sohalarni ham “tortadi”. Klaster elga manfaat keltiradi, odamlarni ish bilan, daromad bilan ta’minalaydi [8]. Ma’lum bir hududda innovatsion, samarali faoliyatni rivojlantirishga hissa qo‘shadigan klaster qandaydir yaxlit tuzilma, tashkiliy shakl mavjudligiga qaraydigan notijorat sheriklik yoki uyushma bo‘lishi mumkin [6]. O‘zbekiston uchun jadal sanoatlashtirish va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish ustuvorligining zamonaviy sharoitida klaster tizimini shakllantirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Klasterlarni yaratishga jiddiy o‘ylangan yondashuv ularni yangi o‘sish markazlarini yaratish orqali mamlakatning yagona iqtisodiy rivojlanishiga va uning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi vositaga aylantirish imkonini beradi. Klasterning mavjudligi kompaniyalarning raqobatbardoshligini 3 ta yo‘l bilan oshiradi: samaradorlikni oshirish orqali, innovatsiyalar qobiliyatini oshirish orqali va yangi kompaniyalarning paydo bo‘lishi orqali. Bu klasterning yanada katta innovatsiyalari va kengayishiga yordam beradi [5].


Tadqiqot ishi klaster korxonalar doirasida quyidagi metodologiyalardan foydalanish orqali olib borildi:

- Viloyatlar kesimida klaster korxonalar ulushini qiyosiy taqqoslash usulidan foydalanib ifodalash;
- Mamlakatda yo‘lga qoyilgan klaster turlarining faoliyat ko‘rsatish holatini sintez va tizimli tahlil qilish;

- Tashkil etilgan klasterdagi fermer xo‘jaliklari soni grafik usuldan foydalangan holda tahlil qilish.

NATIJALAR

Mamlakatimizda 2017 yil fevral oyida president Sh.Mirziyoyev Buxoro viloyatiga tashrifda birinchi bor klaster islohotini ilgari surgan edi. 2017 yilda O‘zbekistonda 1 dona klaster ishlagan bo‘lsa, 2018 yilda 15 ta, 2019 yilda 75 ta va bu ko‘rsatkich yildan-yilga o‘sib bormoqda. Klaster islohotlari boshlangandan buyon klaster korxonalarni tashkil etish va kengaytirishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha davlatimiz raxbari tomonidan amalga oshirilayotgan ko‘plab tashabbuslarni farmon va qarorlarida ko‘rishimiz mumkin. Xususan, 2021-yil 27-oktabrda bo‘lib o‘tgan majlisda qishloq xo‘jaligida jiddiy o‘zgarishlar bo‘lishini, hosildorlikni 5 yilda 2 baravar oshirish, eksportni 7 milliard dollarga yetkazish, xomashyoni chuqur qayta ishlash aholi bandligini va daromadlarini yanada oshirish vazifalari, bunda klasterlar asosiy tayanch va yetakchi bo‘lishini ta’kidlagan edi[7]. Paxtachilik klasterlaridan yuqori samaradorlikka erishish natijasida, tolani qayta ishlash 2 baravar, ip-kalava ishlab chiqarish 2 baravar, tayyor mahsulot ishlab chiqarish 3 baravar oshib 3 milliard dollar daromadga yetgan. Moliyalashtirish tartibidagi muammolar hal qilinib,kreditlar 24 oyga ajratildi. Sohani yanada isloh qilish bo‘yicha byudjetdan 10 trillion va 100 million dollar ajratilgan. Bundan tashqari, import qilinadigan texnika, butlovchi va ehtiyyot qismlar 3 yilga bojxona to‘lovlardan ozod qilingan.



1-rasm. Klasterlarning viloyatlar kesimidagi ulushi¹

¹ Statistik ma'lumotlar asosida muallif ishlchanmasi

Statistika ma'lumotlariga ko'ra, klasterning viloyatlar kesimida ulushi: Qoraqalpog'iston – 6.7%, Andijon – 5.6%, Buxoro – 7.7%, Jizzax – 8.7%, Qashqadaryo – 13.5%, Navoiy – 3.4%, Namangan – 5.3%, Samarqand – 9.2%, Surxondaryo – 8.3%, Sirdaryo – 7.7%, Toshkent v. – 8.8%, Farg'ona – 9.1%, Xorazm – 5.9%[9].

Prezidentimizning 2019 yil uchun mo'lallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida klaster usulida paxta yetishtirishni kamida 52% ga yetkazish uchun 48 ta paxta-to'qimachilik klasterini tashkil etish bo'yicha qaror qabul qilindi. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish, qishloq aholisini ish bilan band qilish masalalari Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "2022-2026 yillarga mo'lallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi" ning 30-maqсади aynan qishloq xo'jaligini intensive rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5% ga yetkazish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kengaytirish belgilab berildi[2]. Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha 2021 yil 4 dekabrda nizom tasdiqlandi. Nizomga ko'ra, klaster Vazirlar Mahkamasi tomonidan tashkil etilishi, samaradorligi bilan bog'liq masalalar 1 yilda kamida 1 marta monitoring o'tkazilishi, hujjat qabul qilingach 5 ish kunida talabgor bilan 30 yilga bitim tuzilishi kabi masalalar belgilab qo'yilgan. Klaster tizimida faoliyat olib borayotgan korxonalar va fermer xo'jaliklari uning afzallik jihatlarini, sohada sezilarli o'zgarishlar yuz berayotganligini va klaster siyosati iqtisodiyotning barcha sohalari uchun istiqbolli ekanligini allaqachon anglab yetishgan.

MUHOKAMA

Hisob-kitoblarga ko'ra, hozirda iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning 50% klaster tizimiga o'tgan. Misol uchun, AQSHda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining yarmidan ziyodi klasterga o'tib, iqtisodiy o'sishga ta'siri sezilarli darajada. Mutaxassislar kuzatuvidan, kuchli raqobat sharoitida ustunlikka erishishda klaster eng to'g'ri yo'l hisoblandi. Bu tizim har qaysi sharoitda ham o'zini oqlaydi, muammodan chiqib ketishni va davlatni raqobatbardosh bo'lishiga erishiladi. Nufuzli davlatlarda barcha sohalarda klasterni joriy qilish iqtisodiy samaradorlikka erishishdagi eng oqilona yo'l hisoblanadi. Mamlakatda tayyorlanadigan tovarlarni to'liq shu tizimga o'tkazish natijasida ham YalMning salmoqli foiziga erishish mumkin. Mamlakatimizda paxta-to'qimachilik sohasida klasterning yo'lga qo'yillganligi va jadal o'zgarishlardan, yaqin 2-3 yida jahon to'qimachilik bozoridan o'rin egallashga erishiladi. Davlatimiz raxbari dunyoning ilg'or mamlakatlari qatoridan joy olish yo'li, bu – agrar sohada, ilm-fanda, ta'lim tizimida va boshqa sohalarda klaster tizimlarini

joriy etilishi hisoblanishini ko‘p bor ta’kidlagan. Bozor tamoyillariga o‘tishda klasterlar faoliyatini yanada kengaytirish va mexanizmini joriy etishda fermerlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, klaster tizimida yaratilgan yangi ish o‘rinlari, bank kreditlarini olish, soliq imtiyozlari va investitsiya kiritishni takomillashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha vazifalar belgilab qo‘yilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, klaster tizimiga o‘tish dunyodagi yirik davlatlarda o‘zining sezilarli natijasini ko‘rsatgan. Bir mahsulot asosida industrlashgan tizimni tashkil qilib, mahsulotning sifatini va hajmini yuqori samaradorlikka ko‘taradi. Tizim o‘z ichiga ko‘plab majburiyatlarni olib, iqtisodiyotni muvozanat holatda olib boradi. Bunda barcha ishtirokchilarning manfaatlari hisobga olinib, sohadagi muammolar yechimini topadi. Agroklasterlar rivojlanishining iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish va tizimdan foydalanishning afzallik jihatlarini asoslashda yaratilgan yangi ish o‘rinlari, bank kreditlarini olish, soliq imtiyozlari hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.02.2021 O‘RQ – 671 – son qarori bilan o‘zgartirish va qo‘sishchalar kiritilgan yangi tahriri). // www.lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022 yil 28-yanvardagi PF-60 sonli Farmoni. www.lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi (PF-5853-sun 23.10.2019) Farmoni. www.lex.uz
4. Ergashev R.X., Fayziyeva SH.Sh. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. Darslik. T.: Iqtisod-moliya, 2018-403b
5. Федяшева Галия Ч-Б. Кластерные инициативы в Узбекистане: условия сдерживания и развития // Парадигмы управления, экономики и права №2(4) 2021 С:155-163
6. Кундиус В.А., Воронкова О.Ю. Научные основы развития органического сельского хозяйства, кластерный подход // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. №-11-1(38),2019. С-97-100
7. <http://www.lex.uz>
8. <http://www.xs.uz>
9. <http://www.agro.uz>